

**TURIZMNI RIVOJLANTRISHDA SOLIQ IMTIYOZLARIDAN  
FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI TAHLILI**

*Turabov Ulug'bek Olimjonovich*  
*Sog'liqni saqlash vazirligi xodimi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada, soliq ma'murchiligiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali soliq bazasini kengaytirish bo'yicha taklif va amaliy tavsiyalar va ularni samaradorligini baholash yo'llari bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, tadqiqot doirasida xulosa va takliflar shakllantirilgan.

**Kalit so'zlar:** soliq hisoboti, soliq tushumlari, soliq, interaktiv xizmat, samaradorlik, raqamli platforma, raqamli transformatsiya, usullar va vositalar, ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, tahlil, optimallashtirish, veb-xizmatlar, zamonaviy texnikalar.

***Kirish:***

Respublika iqtisodiyotida turizmni strategik darajaga ko'tarish, ichki turizm xizmatlari hajmini keskin ko'paytirish, fuqarolarni mamlakatimizning turizm salohiyati bilan tanishtirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, taqdim etilayotgan turizm xizmatlari sifatini yaxshilash va jahon bozorlarida raqobatbardoshligini oshirish maqsadida qadar chora -tadbirlar oshirilmoqda.

***Adabiyotlar sharxi.***

Mavzu doirasida asosiy o'rganiluvchi iqtisodiy kategoriya kichik tadbirkorlik sub'ektlarini soliqqa tortish amaliyotini takomillashtirishga berilgan ta'riflarga batafsil to'xtalsak.

Xususan R.Kantilon tadbirkorlikni foyda olish chegaralanmagan va bahosi aniq tovarlarni sotib oladi-yu, lekin sotish bahosi noaniq bo'ladi, u tavakkalchi, taklifni talabga moslovchi - deb baholaydi.

Shumpeter tadbirkorlikning besh muhim tomonini: iste'molchilarga noma'lum yangi tovarlar ishlab chiqarishi; yangi ishlab chiqarishni qo'llashi va mavjud tovarlar tijoriyligini ta'minlash; yangi tovarlarni o'zlashtirishi; yangi xom-ashyolarning ishlatilishi; tarmoqni takomillashtirishni ko'rsatib beradi. Tadbirkor yangi kombinatsiyalarni amalga oshiruvchi shaxsdir - deb ta'kidlaydi.

S.G'ulomovning ta'kidlashicha, kichik biznes va tadbirkorlik har qanday sharoitda, iqtisodiy tushkunlikda ham, inflyatsiya davrida ham, kreditlar foizi o'ta yuqori bo'lganda ham, zarur infratuzilmasiz kelajagi noma'lum hollarda ham, xavf-xatar qanchalik yuqori bo'lishiga qaramay yashayveradi .

A.O‘lmasov tomonidan «Kichik biznes – kishilar (mulkchilik) sub’ektlarining moddiy va pul mablag‘larini (kapitalini) amalda xo‘jalik oborotiga, daromad topishga mo‘ljallangandir», deya ta’kidlagan bo‘lsa, Yo.Abdullaev tadbirkorlikka – qonun hujjatlariga muvofiq, daromad (foyda) olishga qaratilgan, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan mahsulot ishlab chiqarish yo‘li bilan tavakkal qilib, o‘z mulkiy javobgarligi ostida amalga oshiriladigan tashabbuskorlik faoliyati sifatida ta’rif bergan .

### ***Tadqiqot metodologiyasi.***

Ushbu maqolada kichik tadbirkorlik sub’ektlarini soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat. Qiyosiy usuldan foydalanilib, tadbirkorlik sub’ektlarini doir ma’lumotlar va ularni tahlillar amalga oshirilib ilmiy xulosalar berildi.

### ***Tahlil va natijalar muhokamasi.***

O‘zbekiston Respublikasi soliq kodeksining 483-moddasiga asosan 2022-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan davrda 2020-yil 31-dekabrda holatga ko‘ra faoliyatni turizm sohasida amalga oshirayotgan tadbirkorlik sub’ektlari uchun yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha soliq qarzini majburiy ravishda undirish, shuningdek quyidagilar bo‘yicha penya hisoblash choralari ko‘rilmaydi:

2021- yil 31-dekabr gacha bo‘lgan davr uchun turoperatorlar, turagentlar va turizm sohasida mehmonxona xizmatlari (joylashtirish xizmatlari) ko‘rsatuvchi tadbirkorlik sub’ektlari:

foyda solig‘ini belgilangan soliq stavkalariga nisbatan 50 foiz kamaytirilgan soliq stavkalari bo‘yicha to‘laydi;

ijtimoiy soliqni 1 foiz miqdoridagi soliq stavkasi bo‘yicha to‘laydi;

yuridik shaxslarning mol-mulkidan olinadigan soliqni va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ini to‘lashdan ozod qilinadi.

Kodeksning 75-moddasiga asosan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari turistik zonalarda joylashgan alohida sanatoriy-kurort ob’ektlari egallagan yer uchastkalariga nisbatan mol-mulk solig‘i va yer solig‘ining kamaytirilgan soliq stavkalarini belgilash yoki soliq to‘lashdan ozod qilish huquqiga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yilning 30-apreldagi “Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-232-sonli qarorining 1-bandiga asosan 2022-yil - iyundan boshlab «O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil!» dasturi doirasida:

sayohat xarajatlarining bir qismi ish beruvchilarning byudjetdan tashqari jamg‘armalari mablag‘lari va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan qoplab beriladi.

Qarorning 4-bandiga asosan 2022 yil 1 sentyabrdan boshlab O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun «O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil!» dasturi doirasida respublika hududlari bo‘ylab ichki sayohatlarni amalga oshirish xarajatlarining bir qismini qaytarish («Cashback») tartibini joriy etish belgilangan.

Xususan:

Sayohat xarajatlarini qaytarish ichki sayohatlarni rejalashtirish va mablag‘larni qaytarish hamda «O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil!» dasturi doirasida taqdim qilinadigan chegirmalar, tayyor turistik paketlarni mustaqil shakllantirishni nazarda tutuvchi elektron platforma, shu jumladan uning mobil ilovasi (keyingi o‘rinlarda — Platforma) orqali amalga oshiriladi;

Sayohat xarajatlarini qaytarish har bir turistga quyidagi miqdorlarda amalga oshiriladi:

aviaqatnov orqali borib-kelish chiptasi narxining 15 foizi, lekin 150 ming so‘mdan oshmagan miqdorda;

temir yo‘lda yoki avtobusda borib-kelish chiptasi narxining 15 foizi, lekin 80 ming so‘mdan oshmagan miqdorda;

joylashtirish vositasida tunab qolish xarajatining 15 foizi, lekin 80 ming so‘mdan oshmagan miqdorda;

teatr, muzey, sirk va badiiy galereyalarga har bir tashrif chiptasi narxining 50 foizi, lekin 20 ming so‘mdan oshmagan miqdorda;

sayohat xarajatlari faqatgina Platforma orqali amalga oshirilgan ichki sayohatlar uchun uning yakuni bilan mahalliy turistlarning bank kartalariga qaytariladi;

Platforma Davlat soliq qo‘mitasining maxsus mobil ilovasi (SoliqUz) bilan integratsiya qilingan holda, xarajatlar haqqoniyligi mobil ilova yordamida tekshirilib, xarid chekinging matritsali shtrix kodini (QR-kod) hamda mahalliy turistlarning doimiy yashash joylarini ko‘rsatish orqali sayohatlar ro‘yxatdan o‘tkaziladi.

Turizm va madaniy meros vazirligiga 2022-yil 1-sentyabrga qadar Platformani ishlab chiqish va ishga tushirish;

2022-yil 1-oktyabrga qadar joylashtirish vositalari, turoperator va turagentlar, gid (gid-tarjimon), yo‘riqchi-yo‘l boshlovchi va ekskursiya yetakchilari Platforma orqali o‘z xizmatlarini yo‘lga qo‘yishlari uchun barcha sharoitlarni yaratish;

turizm sohasi sub’ektlari o‘rtasida Platforma imkoniyatlarini doimiy targ‘ib qilib borish;

Platformaga xizmat ko‘rsatish va keyinchalik modernizatsiya qilish hamda doimiy ravishda texnik qo‘llab-quvvatlash choralari ko‘rish vazifasi yuklatilgan.

2. Qarorning 20-bandiga asosan 2022-yil 1-iyuldan boshlab «Turizm mahallasi», «Turizm qishlog‘i» yoki «Turizm ovuli» maqomi berilgan fuqarolar yig‘inlari hududlarida mehmon uylari, ovqatlanish, ko‘ngilochar joylar tashkil etgan tadbirkorlar uchun quyidagi imtiyozlar beriladi:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-yanvardagi «Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-104-son qarori 2-bandiga asosan 2022-yil 1-apreldan 2025-yil 1-yanvarga qadar mehmonxona (joylashtirish) xizmatlari ko‘rsatuvchi hamda ko‘ngilochar maskanlarda xizmatlar ko‘rsatuvchi tadbirkorlik sub’ektlari uchun ijtimoiy soliq stavkasini 1 foiz etib belgilash. Bunda:

mazkur soliq imtiyozi tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan, agar ularning mazkur kichik bandda ko‘rsatilgan faoliyat turlarini amalga oshirishdan olgan daromadlari joriy hisobot (soliq) davri yakunlari bo‘yicha jami daromadning kamida 60 foizini tashkil etsa, qo‘llaniladi;

mazkur kichik bandda ko‘rsatilgan faoliyat turlari bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan xodimlar sonini yashirish holatlari aniqlanganda, mazkur soliq imtiyozining amal qilishi to‘xtatiladi hamda qonunchilikda belgilangan moliyaviy sanksiyalar qo‘llaniladi.

Tadbirkorlik sub’ektlariga 2022-yil 1-yanvardan boshlab 2027-yil 1-yanvarga qadar mehmonxona (joylashtirish vositalari) (shu jumladan, ular egallagan yer uchastkalari) bo‘yicha:

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i va yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkalarini 90 foizga kamaytirish. Bunda, 2027-yil 1-yanvargacha yangidan quriladigan ob’ektlarga (shu jumladan, ular egallagan yer uchastkasiga) nisbatan mazkur imtiyozni ular foydalanishga topshirilgan oydan boshlab 5 yil muddat davomida qo‘llaniladi.

Foyda solig‘ini hisoblashda binolarning qiymatini ikki yil davomida amortizatsiya xarajatlari sifatida chegirish huquqini beriladi.

2022-yil 1 apreldan boshlab 2025-yil 1-yanvarga qadar -Qoraqalpog‘iston Respublikasining Taxtako‘pir, Xojeyli, Ellikqal’a tumanlarida,

-Andijon viloyatining Xonobod shahrida,

-Buxoro viloyatining Kogon va Romitan tumanlarida,

-Jizzax viloyatining Arnasoy, Zomin, Forish tumanlarida

-Qashqadaryo viloyatining Kitob, Shahrisabz va Qamashi tumanlarida,

-Navoiy viloyatining Xatirchi, Nurota, Qiziltepa tumanlarida,

-Namangan viloyatining Chust, Yangiqo‘rg‘on tumanlarida,

-Samarqand viloyatining Urgut tumanida,

-Sirdaryo viloyatining Xovos tumanida,

-Surxandaryo viloyatining Boysun tumanida,

-Toshkent viloyatining Angren shahri, Ohangaron, Parkent, Bo‘stonliq

tumanlari

-Farg‘ona viloyatining Rishton tumanida,

-Xorazm viloyatining Xiva shahri, Xiva va Bog‘ot tumanlari turizm hududlarida ro‘yxatdan o‘tgan hamda ushbu hududda umumiy ovqatlanish, mehmonxona (joylashtirish), savdo, ko‘ngilochar, turoperator va turagent xizmatlarini ko‘rsatayotgan tadbirkorlik sub’ektlari uchun aylanmadan olinadigan soliq stavkasini — 1 foiz;

ushbu hududlardagi ob’ektlar va ular egallagan yer uchastkasi bo‘yicha yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i miqdorlarini — mazkur soliqlar bo‘yicha hisoblangan summaning 1 foizi miqdorida belgilangan.

Bunda, tuman va shaharlarning turizm hududlari chegaralari Turizm va sport vazirligi hamda Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligining hududiy bosh boshqarmalari xulosalari asosida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar Kengashlari tomonidan belgilanadi.

jismoniy shaxslar tomonidan mahallalararo savdo-xizmat ko‘chalari bo‘yida joylashgan turarjoy ob’ektlarini mehmonxona (joylashtirish) xizmati ko‘rsatish turi bo‘yicha noturarjoy ob’ekti toifasiga o‘tkazilganda 2024-yil 1-yanvarga qadar ularga nisbatan mol-mulk solig‘i va yer solig‘ining jismoniy shaxslar uchun o‘rnatilgan stavkasini saqlab qoladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-avgustdagi “O‘zbekiston respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5781-sonli Farmonining 9-bandiga asosan 2023-yil 1-yanvarga qadar quyidagilar:

a) yetib borish qiyin bo‘lgan va chekka joylarda (aholi yashash punktlaridan kamida 10 km yoki qattiq qoplamali avtomobil yo‘llaridan 5 km uzoqlikda) kempinglar va «safari» turizmini tashkil etish bo‘yicha turizm xizmatlarini ko‘rsatadigan yuridik shaxslar alohida avtonom infratuzilmani yaratgan taqdirda mazkur faoliyat turi bo‘yicha yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i, yer solig‘i va mol-mulk solig‘i, shuningdek, aylanmadan olinadigan soliq to‘lashdan;

b) yuridik shaxslar, ularning loyiha tashkilotlari, bosh pudratchi va subpudratchi tashkilotlari jahon standartlariga mos va zarur madaniy ko‘ngilochar infratuzilmalariga ega golf majmualarini barpo etish loyihasini amalga oshirish doirasida:

foyda solig‘i, yer solig‘i va mol-mulk solig‘idan;

loyihani amalga oshirish uchun jalb etiladigan xorijiy mutaxassislarning mehnatiga haq to‘lash fondi qismi bo‘yicha ijtimoiy soliqdan;

loyihani amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan tovarlarni, shu jumladan «vaqtincha olib kirish» bojxona rejimida olib kirishda bojxona boji va aksiz solig‘idan;

v) namunaviy loyihalar bo‘yicha zamonaviy sanitariya-gigiena shoxobchalarini qurish va (yoki) ularning faoliyatini tashkil etishni amalga oshiruvchi

yuridik shaxslar mazkur faoliyat turi bo'yicha yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i, yer solig'i va mol-mulk solig'i, shuningdek, aylanmadan olinadigan soliqni to'lashdan ozod etiladi.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6165-sonli Farmoniga asosan 2021-yil 31-dekabrga qadar:

Qarorning 3- b)-qismiga asosan kamida 10 kishidan iborat xorijiy turistik guruhlar uchun O'zbekiston Respublikasida tur tashkil etish va ularning joylashtirish vositalarida kamida besh kecha tunab qolishi sharti bilan turoperatorlarning avia va temir yo'l chiptalari bo'yicha xarajatlarini chipta narxining 30 foizi miqdorida qisman subsidiyalanadi;

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yildagi 7-fevraldagi "Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3514-sonli qaroriga asosan 2018-yil 10-fevraldan boshlab 2023-yil 31-dekabrga qadar quyidagi tartib joriy etilgan, unga ko'ra:

- ish beruvchining turizm sohasida faoliyat ko'rsatish bo'yicha litsenziyaga ega bo'lgan sub'ektlardan xodimlar va ularning oila a'zolari uchun respublika bo'ylab turistik yo'llanmalarni sotib olish xarajatlari xodimning daromadi sifatida ko'rib chiqilmaydi hamda yuridik shaxsdan olinadigan foyda solig'ini hisoblab chiqishda chegirib qolinishi lozim;

- jismoniy shaxslarning daromad solig'ini hisoblashda soliqqa tortiladigan daromadlari summasi O'zbekiston Respublikasi bo'ylab turistik yo'llanmalarni turizm sohasida faoliyat ko'rsatish bo'yicha litsenziyaga ega bo'lgan sub'ektlardan sotib olishga yo'naltirilgan xarajatlar summasiga kamaytiriladi. Bunda turistik yo'llanma (ayirboshlanadigan vaucher), avia va temir yo'l chiptalari, avtotransport tashkilotlarining hisob-fakturalari (chiptalari) va joylashtirish vositalari cheklari tasdiqlovchi hujjatlar hisoblanadi.

turizm sohasida faoliyat ko'rsatadigan sub'ektlarning soliq solinadigan bazasi O'zbekiston turizm brendi va «Uzbekistan.travel» sayti reklamasi bo'lgan bosma mahsulotlarni (xaritalar, risolalar, bukletlar, flayerlar va boshqalar), suvenir va qadoqlash mahsulotlarini (sumkalar, paketlar, maktab daftarlari, yorliqlar, g'iloflar, kiyim-kechaklardagi va oshxona anjomlaridagi yozuvlar) tayyorlash va chop etishga yo'naltiriladigan xarajatlar summasiga kamaytiriladi

### ***Xulosa va takliflar.***

Xaridorlarga berilayotgan keshbek summalar to'g'ri hisoblanishi va byudjet mablag'laridan oqilona foydalanish maqsadida, shubhali keshbek summalarini aniqlash tahlila-tahlil mexanizmlarini ishlab chiqish. Bunda, katta son va miqdordagi cheklarni ro'yxatdan o'tkazish, chek ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng uni bekor qilish

yoki soliq hisobotlarini aks ettirmagan holatlarni avtomatlashtirilgan tizimlar orqali aniqlash va ushbu keshbek summalarini bekor qilish choralar ko‘rish.

To‘lov tashkiloti, tijorat banklarining elektron to‘lov xizmatlari (shu jumladan mobil ilovalar orqali), shuningdek, elektron tijorat platformalari — “Marketpleys” larning axborot tizimlari yordamida masofadan turib amalga oshirilgan savdo va pullik xizmatlar bo‘yicha tranzaksiyalarning elektron cheklarida soliq organlari axborotlar tizimlariga integratsiyalashgan va avtomatik tarzda shakllanuvchi fiskal belgilarni majburiy aks ettirish, shuningdek, ushbu cheklarni keshbek olish uchun avtomatik ro‘yxatdan o‘tkazish hamda soliq hisobotlarida alohida satrda aylanma miqdorini aks ettirish mexanizmini yaratish.

***Adabiyotlar:***

1. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi- Tosh: G‘.G‘ulom 2020.- 640 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi ma’lumotlari. [www.soliq.uz](http://www.soliq.uz).
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 30 dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining «2022 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida»gi Qonuni ijrosini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-73-son qarori.